

## РОЛЬ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОГО ФАКТОРА В ГЕНЕЗЕ МИОМЫ МАТКИ

Хайдарова Ф.А.

Врач Бухарского филиала Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи, e-mail: [Firuza.khaydarova96gmail.com](mailto:Firuza.khaydarova96gmail.com), +998 91 401 07 03.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17046930>

**Резюме.** Хотя происхождение и патогенез миомы матки изучаются во многих исследованиях, роль микробного фактора в развитии миомы матки в настоящее время точно не проанализирована. Тяжелый анаэробный влагалищный дисбиоз отмечен почти у половины пациентов с миомой матки (46,7% в 1-группе, 50,0% во 2-группе), в остальных случаях – тяжелый аэробно-анаэробный дисбиоз, легкий анаэробный дисбиоз и легкий аэробный дисбиоз. Это говорит о том, что нарушение состава микрофлоры влагалища может быть одним из важных патогенетических звеньев развития миомы матки.

**Ключевые слова:** миома матки, микрофлора влагалища, дисбиоз влагалища.

## BACHADON MIOMASI GENEZIDA MIKROBIOLOGIK OMILNING O'RNI

Haydarova F.A.

Respublika shoshilich tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filiali shifokori, e-mail: [Firuza.khaydarova96gmail.com](mailto:Firuza.khaydarova96gmail.com), +998 91 401 07 03.

**Rezyume.** Bachadon miomasining kelib chiqishi va patogenezi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilayotgan bo'lsada, hozirgi kunda bachadon miomasi rivojlanishida mikroob omilining o'rni aniq tahlil qilinmagan. Bachadon miomasi bilan kasallangan bemorlarning deyarli yarmida qin og'ir anaerob disbiyozi (1-guruhda 46,7%, 2-guruhda 50,0%), qolgan hollarda qin og'ir aerob-anaerob disbiozi, yengil anaerob disbiozi va yengil aerob disbiozi qayd qilindi. Bu qin mikroflorasi tarkibining buzilishi bachadon miomasi rivojlanishining muhim patogenetik bo'g'inlaridan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bachadon miomasi, qin mikroflorasi, qin disbiozi.

## THE ROLE OF THE MICROBIOLOGICAL FACTOR IN THE GENESIS OF UTERINE FIBROIDS

Khaydarova F.A.

Doctor of the Bukhara branch of the Republican scientific center for emergency medical care, e-mail: [Firuza.khaydarova96gmail.com](mailto:Firuza.khaydarova96gmail.com), +998 91 401 07 03.

**Resume.** Although the origin and pathogenesis of uterine fibroids are studied in many studies, the role of the microbial factor in the development of uterine fibroids is currently not precisely analyzed. Severe anaerobic vaginal dysbiosis was observed in almost half of patients with uterine fibroids (46.7% in group 1, 50.0% in group 2), in the remaining cases – severe aerobic-anaerobic dysbiosis, mild anaerobic dysbiosis and mild aerobic dysbiosis. This suggests that a violation of the composition of the vaginal microflora may be one of the important pathogenetic links in the development of uterine fibroids.

**Key words:** uterine fibroids, vaginal microflora, vaginal dysbiosis.

Bachadon miomasi ayol jinsiy a'zolarining eng keng tarqalgan yaxshi sifatli o'smasi bo'lib, ayollarning 70%dan ortig'ida uchraydi [6]. Bachadon miomasi bilan bog'liq alomatlar orasida anormal hayzli qon ketish, chanoq bo'shlig'I sohasida bosim yoki og'riq, dizuriya yoki ich

qotishi kiradi [3]. Bachadon bo'shlig'I deformatsiyasi va bachadon naychasidagi bosim tufayli bachadon miomasi ko'pincha reproduktiv faoliyatning buzilishi, homiladorlik va tug'ruq asoratlari qo'shilishi bilan bog'liq. Shunday qilib, bachadon miomasi butun dunyo bo'ylab ayollar salomatligi ko'rsatkichlariga, ularning hayot sifatiga va sog'liqni saqlash xarajatlariga katta ta'sir ko'rsatadi [1, 6].

Ushbu patologiyaning etiologiyasi va patogenezini hozirgi kunda ham keng munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bir qator ishlarda miyoma tugunlarining o'sishiga ta'sir qiluvchi jinsiy gormonlar – estrogen va progesteronning ahamiyati isbotlangan, ammo klinik simptomlarning o'zgaruvchanligi va kasallikning kechishi turli bemorlarda turlicha kuzatiladi. Xususan, jinsiy gormonlarning umumiy ta'siri mavjud bo'lganda turli xil o'sish sur'atlari va/yoki regressiya bilan tavsiflanadi [4].

Qin shilliq qavati muhim va murakkab ekotizim bo'lib, asosan sut kislotasi bakteriyalari ustunlik qiladi, lekin oz miqdorda zamburug'lar va parazitlarni ham o'z ichiga oladi. Sut kislotasi bakteriyalari ishlab chiqaradigan sut kislotasi vaginal muhitning pH darajasini past darajada ushlab turadi, zararli bakteriyalarning ko'payishini to'sadi va mikroekologiyani nisbatan muvozanatli holatda saqlaydi. Hozirgi vaqtda bachadon miomasi rivojlanishida mikroob omilining roli deyarli o'rganilmagan. Ushbu masala bo'yicha alohida ishlar chanoq a'zolari va bachadon otrtiqlarining yallig'lanish jarayonlari ba'zi hollarda ushbu patologiyaning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [2, 5].

**Tadqiqot maqsadi:** bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda qin mikroflorasini o'rganish.

**Materiallar va usullar.** Bachadon miomasi tashxisi qo'yilgan 29 nafar bemor tadqiqotga kiritildi. 1-guruhga simptomatik bachadon miomasi bo'lgan 15 nafar bemor, 2-guruhga simptomatsiz bachadon miomasi bor 14 nafar bemor kiritildi. Bemorlarni tekshirish rejasi standart klinik, klinik-laborator va instrumental tadqiqotlarni, shuningdek, Femoflor-16 test to'plamidan foydalangan holda qin mikroflorasini baholashni o'z ichiga oldi.

Natijalarning statistik tahlili Microsoft Office Excel-2003 dasturiy to'plami yordamida amalga oshirildi.  $p < 0,05$  qiymatga ega farqlar statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

**Natijalar va ularni muhokama qilish.** Chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvi tugunning 2/3 holatlarda interstitsial joylashishini, 1/3 holatlarda interstitsial-subseroz va subseroz lokalizatsiyasini aniqladi. Tugunlarning o'lchamlari 2 dan 5 sm gacha, lekin ko'p hollarda tugunlarning o'lchamlari 5 sm dan oshdi. Mioma tugunlarining ultratovush xususiyatlari (hajmi va soni) bo'yicha ba'zi farqlarga qaramay, guruhlar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanmadi ( $p > 0,05$ ).

Oddiy va tez o'suvchi (proliferatsiyalovchi) bachadon miomasi bo'lgan bemorlar guruhlarida kasallikning asosiy klinik ko'rinishi yengil va o'rtacha anemiya rivojlanishi bilan bachadondan qon ketish edi.

Femoflor-16 test to'plamidan foydalangan holda qin mikroflorasini o'rganish ikkala guruhdagi bemorlarning ko'pchiligida disbioz mavjudligini ko'rsatdi. Og'ir anaerob disbioz 1-guruhda 46,7% hollarda, 2-guruhda 50,0% hollarda qayd qilindi. Qolgan tahlillar og'ir aerob-anaerob disbioz, yengil anaerob disbioz va yengil aerob disbioz ulushiga to'g'ri keldi.

Faqatgina bir holatda (1-guruhda) tekshirilayotgan surtma shartli normotsenozga mos keladi. Shunday qilib, bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda normotsenozga nisbatan qin mikroflorasining disbiotik buzilishi ko'proq uchraydi.

**Xulosa.** Bachadon miomasi bo'lgan bemorlarning deyarli barchasida qin disbiozi uchrab, ularning ko'pchiligida qin mikroflorasi tarkibida chuqur buzilishlar kuzatiladi. Shuning uchun qin mikroflorasi tarkibining buzilishi bachadon miomasi rivojlanishining muhim patogenetik bo'g'inlaridan biri bo'lishi mumkinligini e'tiborga olib, keyingi tadqiqotlarda buni batafsil o'rganish zaruriyati tug'iladi.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gupta S, Kakkar V, Bhushan I. Crosstalk between vaginal microbiome and female health: A review. *Microb Pathog.* 2019;136:103696.
2. Korczynska L, Zeber-Lubecka N, Zgliczynska M, et al. The role of microbiota in the pathophysiology of uterine fibroids – a systematic review. *Front Cell Infect Microbiol.* 2023;13:1177366.
3. Moore K, Tomar M, Umbach D, et al. Bacterial vaginosis-associated bacteria and uterine fibroids: A nested case-control study. *Sex Transm Dis.* 2021;48:844–850.
4. Rakhmatullaeva M.M. Indexes of nonspecific immune protection of the vagina before and after treatment of bacterial vaginosis. *Medical Immunology (Russia).* 2025;27(4):823-830. (In Russ.)
5. Vitale SG, Ferrari F, Ciebiera M, et al. The role of genital tract microbiome in fertility: a systematic review. *Int J Mol Sci.* 2022;23:180.
6. Yang Q, Ciebiera M, Bariani MV, et al. Comprehensive review of uterine fibroids: developmental origin, pathogenesis, and treatment. *Endocr. Rev.* 2022;43:678–719.